# OLIY TA’LIMDA INGLIZ ADABIYOTINI O‘QITISHDA AKSIOLOGIK YONDASHUVNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK PARADIGMALAR BILAN INTEGRATSIYASI

Mirsadullayev Miravaz Mirmuslim o‘g‘li
Impuls tibbiyot instituti, katta o‘qituvchi (PhD)
E-mail: dodamaestro@gmail.com Tel.: +998994824969

***DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.24489287***

Annotatsiya: Maqolada oliy ta’limda ingliz adabiyotini o‘qitish jarayonida aksiologik yondashuvning zamonaviy pedagogik paradigmalar bilan integratsiyalashuvi nazariy-metodologik jihatdan tadqiq etiladi. Xususan, aksiologik, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va konstruktivistik yondashuvlarning metodologik xususiyatlari, o‘zaro munosabati hamda adabiy ta’limdagi funksional imkoniyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida mazkur yondashuvlarning o‘ziga xos pedagogik vazifalarini birlashtiruvchi integrativ konseptual mexanizm taklif etiladi. Unda qadriyatli mazmunni anglash, kompetensiyaviy o‘zlashtirish, individual qadriyatli pozitsiyani shakllantirish hamda hamkorlikda ma’no yaratish o‘zaro bog‘liq pedagogik jarayonlar sifatida asoslanadi. Taklif etilgan yondashuv ingliz adabiyotini o‘qitish mazmunini shaxsning intellektual, madaniy va qadriyatli rivojlanishi bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: aksiologik yondashuv, ingliz adabiyoti, pedagogik paradigma, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, konstruktivistik yondashuv, qadriyatlar, adabiy ta’lim, oliy ta’lim, madaniyatlararo muloqot.

Аннотация: В статье исследуется теоретико-методологическая интеграция аксиологического подхода с современными педагогическими парадигмами в процессе преподавания английской литературы в высших учебных заведениях. Посредством сравнительного анализа раскрываются методологические особенности, взаимосвязь и функциональные возможности аксиологического, компетентностного, личностно-ориентированного и конструктивистского подходов в литературном образовании. В результате предлагается интегративный концептуальный механизм, объединяющий специфические педагогические функции указанных подходов. Осмысление ценностного содержания, компетентностное усвоение, формирование индивидуальной ценностной позиции и совместное конструирование смысла рассматриваются как взаимосвязанные педагогические процессы. Предложенный подход направлен на интеграцию интеллектуального, культурного и ценностного развития личности в содержании преподавания английской литературы.

Ключевые слова: аксиологический подход, английская литература, педагогическая парадигма, компетентностный подход, личностно-ориентированное обучение, конструктивистский подход, ценности, литературное образование, высшее образование, межкультурная коммуникация.

Abstract: This article investigates the theoretical and methodological integration of the axiological approach with contemporary pedagogical paradigms in teaching English literature in higher education. Through comparative analysis, it examines the methodological characteristics, interrelationships, and functional potential of axiological, competence-based, learner-centred, and constructivist approaches to literary education. The study proposes an integrative conceptual mechanism that brings together the distinctive pedagogical functions of these approaches. Value-oriented interpretation, competence development, the formation of individual value positions, and collaborative meaning-making are conceptualised as interconnected educational processes. The proposed approach aims to integrate students' intellectual, cultural, and value development into the teaching of English literature.

Keywords: axiological approach, English literature, pedagogical paradigm, competence-based approach, learner-centred education, constructivist approach, values, literary education, higher education, intercultural communication.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida ta’lim mazmunini takomillashtirish jarayoni bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bilan bir qatorda shaxsning qadriyatli dunyoqarashi, mustaqil fikrlashi, ijtimoiy mas’uliyati hamda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishni ham taqozo etmoqda. Ayniqsa, xorijiy tillar va adabiyotlarni o‘qitishda ta’limning faqat lingvistik yoki axborot berish funksiyasi bilan cheklanib qolmasdan, uning shaxs kamolotiga yo‘naltirilgan imkoniyatlarini kengaytirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Ingliz adabiyoti mazmunan turli tarixiy davrlar, ijtimoiy munosabatlar, falsafiy qarashlar, madaniy tajribalar va insoniy qadriyatlarni mujassam etgan murakkab badiiy-estetik hodisadir. Badiiy asarlarni o‘rganish jarayonida talabalar nafaqat muayyan adabiy davr yoki yozuvchining ijodiy xususiyatlari haqida bilim oladilar, balki inson, jamiyat, erkinlik, adolat, mas’uliyat, vijdon va inson qadr-qimmati kabi tushunchalar yuzasidan mustaqil mulohaza yuritish imkoniyatiga ham ega bo‘ladilar. Shu jihatdan ingliz adabiyotini o‘qitishda qadriyatlar mazmunini ta’lim jarayoniga maqsadli integratsiyalash zarurati yuzaga keladi.

Mazkur jarayonda aksiologik yondashuv muhim metodologik asos sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq uni faqat qadriyatlar haqidagi ma’lumotlarni o‘rgatish yoki badiiy asarlarning axloqiy mazmunini tahlil qilish bilan chegaralash yetarli emas. Aksiologik ta’lim samaradorligi talabaning qadriyatlarni anglash, ularni turli nuqtayi nazardan baholash, shaxsiy munosabatini shakllantirish va ijtimoiy hayot bilan bog‘lay olish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Shu sababli aksiologik yondashuvni kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va konstruktivistik yondashuvlar bilan o‘zaro integratsiyada ko‘rib chiqish dolzarb ilmiy-metodologik masala hisoblanadi.

Aksiologik yondashuv ta’lim jarayonida qadriyatlarning mazmuni, shakllanishi, o‘zlashtirilishi va shaxs faoliyatidagi namoyon bo‘lishini o‘rganishga yo‘naltirilgan metodologik yondashuv hisoblanadi. Uning asosiy xususiyati ta’lim natijalarini faqat bilim va ko‘nikmalar bilan emas, balki shaxsning qadriyatli munosabati, hayotiy pozitsiyasi va ijtimoiy mas’uliyati bilan ham bog‘liq holda talqin etishdan iborat.

Shalom H. Schwartz tomonidan ishlab chiqilgan asosiy insoniy qadriyatlar nazariyasi ushbu masalani psixologik jihatdan tushuntirish uchun muhim nazariy asos yaratadi. Olim qadriyatlarni inson xulq-atvori va qarorlarini yo‘naltiruvchi motivatsion maqsadlar sifatida izohlaydi. Uning nazariyasida qadriyatlar o‘zaro munosabatda bo‘lgan, ayrim holatlarda bir-birini qo‘llab-quvvatlaydigan, boshqa holatlarda esa ziddiyatga kirishadigan motivatsion tizim sifatida tavsiflanadi [1, 3–4, 8–9-b.].

Mazkur qarash ingliz adabiyotini o‘qitishda badiiy qahramonlarning qarorlari, xatti-harakatlari va hayotiy tanlovlarini qadriyatlar tizimi doirasida tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, erkinlik va ijtimoiy mas’uliyat, shaxsiy manfaat va boshqalarga g‘amxo‘rlik, an’ana va mustaqil tanlov o‘rtasidagi ziddiyatlar badiiy matnni aksiologik tahlil qilish uchun muhim material hisoblanadi.

Aksiologik yondashuvning pedagogik ahamiyati shundaki, u talabaning o‘quv jarayonidagi ishtirokini faqat tayyor bilimlarni qabul qilish bilan cheklamaydi. Aksincha, talaba o‘rganilayotgan badiiy matn mazmunidagi qadriyatlarni mustaqil anglash, turli nuqtayi nazarlarni qiyoslash va o‘z munosabatini shakllantirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Bunda aksiologik yondashuv boshqa pedagogik paradigmalarni inkor etmaydi. Aksincha, ularning imkoniyatlarini qadriyatga yo‘naltirilgan ta’lim maqsadi bilan uyg‘unlashtirish orqali yaxlit pedagogik mazmunni shakllantiradi.

Masalan, kompetensiyaviy yondashuv talabaning o‘zlashtirgan bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo‘llashiga yo‘naltirilgan bo‘lsa, aksiologik yondashuv ushbu faoliyatning qadriyatli mazmunini belgilashga xizmat qiladi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv individual tajriba va

ehtiyojlarni hisobga oladi, konstruktivistik yondashuv esa bilim va ma’nolarning faol o‘zlashtirilishi hamda ijtimoiy muloqotda shakllanishiga e’tibor qaratadi.

Demak, aksiologik yondashuv zamonaviy pedagogik paradigmalar bilan integratsiyada ingliz adabiyotini o‘qitishning maqsad va mazmunini kengaytiruvchi metodologik asos sifatida qaralishi mumkin.

Ingliz adabiyotini o‘qitishda mazkur to‘rtta yondashuvning har biri alohida pedagogik vazifani bajaradi. Ularning integratsiyasi esa o‘quv jarayonida bilim, shaxsiy tajriba, qadriyatli munosabat va amaliy faoliyatning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlaydi.

Birinchidan, *aksiologik yondashuv* ta’limning qadriyatli yo‘nalishini belgilaydi. Uning doirasida badiiy asarlardagi umuminsoniy, milliy-madaniy, ma’naviy-axloqiy va estetik qadriyatlar o‘rganiladi. Talabalar asardagi qahramonlarning qarorlari, ijtimoiy munosabatlari va hayotiy pozitsiyalarini tahlil qilish orqali qadriyatlar mazmunini anglaydilar.

Ikkinchidan, *kompetensiyaviy yondashuv* o‘zlashtirilgan qadriyatli bilimlarning amaliy faoliyatda namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. Bunda talaba badiiy matndagi muammolarni tahlil qilish, dalillangan fikr bildirish, muqobil qarorlarni baholash va madaniyatlararo muloqotda o‘z nuqtayi nazarini ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Uchinchidan, *shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv* adabiy matnni o‘zlashtirish jarayonida talabaning individual tajribasi, qiziqishi, dunyoqarashi va shaxsiy munosabatini hisobga olishga xizmat qiladi. Karl Rojers ta’lim jarayonida o‘rganuvchining shaxsiy tajribasi, mustaqilligi va o‘zini rivojlantirish imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratadi [2, 102–127-b.]. Ushbu qarash ingliz adabiyoti mashg‘ulotlarida talabalarning turlicha talqinlari va shaxsiy mulohazalarini pedagogik jihatdan qadrlash zarurligini asoslaydi.

To‘rtinchidan, *konstruktivistik yondashuv* bilim va ma’nolarni tayyor shaklda qabul qilish emas, balki faol bilish, tajriba va ijtimoiy muloqot jarayonida shakllantirishga yo‘naltiriladi. L. S. Vygotsky qarashlarida bilish jarayonining ijtimoiy-madaniy omillari, hamkorlik va muloqotning rivojlanishdagi ahamiyati asoslab berilgan [3, 79–91-b.]. Ingliz adabiyotini o‘qitishda bu yondashuv badiiy matnni jamoaviy muhokama qilish, turli talqinlarni qiyoslash va yangi ma’nolarni hamkorlikda shakllantirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ingliz adabiyotini o‘qitishda yondashuvlar integratsiyasining samaradorligi, avvalo, badiiy matnning ko‘p qatlamli mazmuni bilan belgilanadi. Adabiy asar o‘zida tarixiy, ijtimoiy, madaniy, estetik va axloqiy ma’nolarni mujassam etgani sababli uni faqat bir metodologik nuqtayi nazardan o‘rganish ta’limiy imkoniyatlarning ayrim jihatlarini cheklab qo‘yishi mumkin.

Louise M. Rosenblattning tranzaksion adabiy nazariyasida o‘quvchi va matn o‘rtasidagi faol munosabat adabiy asarni anglashning muhim sharti sifatida talqin qilinadi. Muallif o‘quvchining avvalgi tajribasi, qiziqishi va matnga nisbatan munosabati badiiy ma’noning shakllanishida muhim o‘rin tutishini asoslaydi [4, 12, 20-b.]. Mazkur nazariy qarash ingliz adabiyotini o‘qitishda talabaning matn mazmunini shaxsiy tajribasi va idroki orqali anglashiga e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Martha C. Nussbaum esa badiiy adabiyotning insonning boshqa shaxslar hayotiy tajribasini tasavvur qilish, ularning holatini tushunish va ijtimoiy masalalarga nisbatan mulohazali munosabat bildirish imkoniyatlarini ta’kidlaydi [5, 1–12-b.]. Bu qarash adabiy ta’limning qadriyatli va ijtimoiy ahamiyatini asoslashda muhimdir.

Masalan, Charliz Dikensning “Oliver Tvist” romanini o‘rganishda aksiologik yondashuv ijtimoiy adolat, inson qadr-qimmati va mehr-shafqat kabi qadriyatlarni aniqlashga yo‘naltiriladi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalar asardagi ijtimoiy muammolarni tahlil qilib, o‘z fikrlarini badiiy matndan olingan dalillar bilan asoslaydilar. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ularning ijtimoiy tengsizlik va inson huquqlari masalalariga nisbatan individual munosabatini ifodalash imkonini beradi. Konstruktivistik yondashuv esa asar qahramonlari va ijtimoiy muhitga oid turli talqinlarni guruhiy muhokama orqali shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu misoldan ko‘rinib turibdiki, yondashuvlar integratsiyasi badiiy asarni faqat mazmuniy yoki adabiyotshunoslik jihatidan o‘rganish bilan cheklanmay, uning qadriyatli, shaxsiy va ijtimoiy mazmunini ham ochib berishga imkon yaratadi.

Yuqoridagi nazariy qarashlarni umumlashtirish asosida ingliz adabiyotini o‘qitishda aksiologik, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va konstruktivistik yondashuvlarning integratsiyasini ta’minlovchi konseptual mexanizmlarni belgilash mumkin.

Mazkur mexanizm to‘rtta o‘zaro bog‘liq funksional yo‘nalishni qamrab oladi.

Birinchi yo‘nalish — qadriyatli mazmunni aniqlash. Ushbu yo‘nalishda o‘rganiladigan badiiy asarlarning aksiologik mazmuni aniqlanadi. Asarlardagi umuminsoniy, milliy-madaniy, ma’naviy-axloqiy va estetik qadriyatlar ta’lim maqsadlari bilan bog‘lanadi.

Ikkinchi yo‘nalish — kompetensiyaviy o‘zlashtirishni ta’minlash. Talabalar badiiy matnni tahlil qilish, qadriyatlar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash, dalillangan fikr bildirish va o‘z xulosalarini asoslash faoliyatiga jalb etiladi.

Uchinchi yo‘nalish — shaxsiy qadriyatli pozitsiyani rivojlantirish. Talabalarning individual tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatli pozitsiyasini ifodalashiga imkon yaratiladi. Bunda adabiy qahramonlarning qarorlari bilan talabalarning shaxsiy qarashlari o‘rtasidagi munosabat tahlil qilinadi.

To‘rtinchi yo‘nalish — hamkorlikda ma’no yaratishni tashkil etish. Badiiy asar mazmuni guruhiy muhokama, qiyosiy tahlil, savol-javob va hamkorlikdagi interpretatsiya orqali o‘zlashtiriladi. Natijada turli nuqtayi nazarlarni anglash va asoslangan xulosa chiqarish imkoniyati kengayadi.

Ushbu mexanizmlarning o‘zaro aloqasi quyidagi konseptual ketma-ketlikni yuzaga keltiradi:

Qadriyatli mazmunni aniqlash → Kompetensiyaviy tahlil → Shaxsiy qadriyatli pozitsiyani shakllantirish → Hamkorlikda talqin va refleksiya.

Mazkur ketma-ketlik qat’iy va bir yo‘nalishli o‘qitish algoritmi emas, balki pedagogik jarayonda o‘zaro ta’sirlashuvchi funksional mexanizmlarning konseptual ifodasidir.

Uning asosiy xususiyati shundaki, aksiologik yondashuv ta’limning qadriyatli maqsadini belgilaydi, qolgan uch yondashuv esa ushbu maqsadga erishishning shaxsiy, faoliyatga oid va ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu tariqa, ingliz adabiyotini o‘qitishda integrativ pedagogik yondashuv talabaning badiiy matnni anglashidan boshlab, uning mazmunini mustaqil baholash, shaxsiy pozitsiyasini ifodalash va ijtimoiy-madaniy muloqotda qo‘llashigacha bo‘lgan yaxlit ta’limiy jarayonni nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, oliy ta’limda ingliz adabiyotini o‘qitish jarayonida aksiologik yondashuvning zamonaviy pedagogik paradigmalar bilan integratsiyasi ta’limning qadriyatli, shaxsiy va faoliyatga yo‘naltirilgan imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim metodologik omil hisoblanadi.

Shunday qilib, aksiologik, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va konstruktivistik yondashuvlarning integratsiyasi ingliz adabiyotini o‘qitishda bilimga yo‘naltirilgan ta’limdan qadriyatlarni anglash, baholash va shaxsiy pozitsiyani shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’limga o‘tish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Schwartz, S. H. An Overview of the Schwartz Theory of Basic Values // Online Readings in Psychology and Culture. – 2012. – Vol. 2, Issue 1. – Article 11. – P. 1–28. – DOI: https://doi.org/10.9707/2307-0919.1116.

2. Rogers, C. R. Freedom to Learn: A View of What Education Might Become. – Columbus, Ohio: Charles E. Merrill Publishing Company, 1969. – 358 p.

3. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes / Ed. by M. Cole, V. John-Steiner, S. Scribner, E. Souberman. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

4. Rosenblatt, L. M. The Reader, the Text, the Poem: The Transactional Theory of the Literary Work. – Carbondale: Southern Illinois University Press, 1978. – 188 p.

5. Nussbaum, M. C. Poetic Justice: The Literary Imagination and Public Life. – Boston: Beacon Press, 1995. – 143 p.